

**ABDULLA QAHHOR HIKOYALARIDAGI IBORALARNING  
RUSCHA TARJIMADA BERILISHIGA DOIR**

***Mohinur AZIMQULOVA***

*TDSHU 1-kurs talabasi*

*E-mail: [mokhinurazimkulova@gmail.com](mailto:mokhinurazimkulova@gmail.com)*

***Xayrulla Hamidov***

*Ilmiy rahbar, filol.f.d., prof. v.b.*

***Annotatsiya.*** Ushbu maqolada Abdulla Qahhorning bir qancha hikoyalari ruscha tarjimasi tahlilga tortiladi. Shuningdek, o'zbekcha maqol, matal va frazeologizmlar tarjimasidagi muammolarga alohida e'tibor qaratiladi.

***Аннотация:*** В данной статье анализируются русские переводы нескольких рассказов Абдуллы Каххора. Также особое внимание уделяется проблемам перевода узбекских пословиц, маталов и фразеологии.

***Abstract:*** This article analyzes the Russian translations of several stories of Abdulla Qahhor. Also, special attention is paid to the problems of translation of Uzbek proverbs, proverbs, and phraseology.

***Kalit so'z va iboralar:*** badiiy asar, tarjima, maqol, frazeologizm.

***Ключевые слова и выражения:*** произведение искусства, перевод, гуманизм

***Key words and expressions:*** work of art, translation, humanitarianism

Asar tarjimasida tarjimon nafaqat tilni puxta bilishi, balki, o'sha xalqning urfodati, madaniyatini chuqur o'rganishi ham alohida e'tiborni talab etadi. O'zbek adabiyotining yorqin namoyondasi Abdulla Qahhorning biron-bir asari yo'qki, o'zbek hayotining turmush tarzini ochib beruvchi, milliylikni targ'ib etuvchi ibora, maqol va urf-odat nomlari qo'llanilmasa. Shuningdek, atoqli o'zbek adibi Abdulla Qahhor o'z asarlarida insonlar orasidagi mehr-oqibat, samimiylilik, bag'rikenglik mavzulariga alohida e'tibor qaratadi. Shuningdek, "Mahalla" hikoyasi esa buning yaqqol misolidir.

Adib o'z asarlarida tildan foydalanish va ona tilining cheksiz imkoniyatlarini namoyish etishning ajoyib namunalarini bergan va bu bilan o'zbek tili va adabiyotining kamol topishiga ulkan hissa qo'shgan. Binobarin, biz, Abdulla Qahhorning bir qancha hikoyalarini tahlilga tortamiz va ularda qo'llanilgan ibora, maqollar tarjimasiga e'tiborimizni qaratamiz.

Ulardan birinchisi "Mahalla" hikoyasi. Bu hikoya dunyo yuzini ko'rgandan keyin tez orada keng kitobxon ommasiga tanildi. Shu bilan birga rus va ba'zi qardosh tillarga ham tarjima qilindi. Hikoyani rus tiliga Aleksey Naumov tarjima qilgan.

M: "*Hu o'sha... O'zimiz to'g'rilar edik-ku, senga nima, bir oyog'ing go'rda-yu... Chol sekin sekin burilib qaradi.*

– *Mening bir oyog'im go'rda, sening ikkala oyog'ing to'rдами? Unaqa demagin, bolam, kim oldin o'lishini bilib bo'lmaydi...*"

Yuqoridagi misolda hikoya qahramoni hisoblangan chol va kotib o'rtasidagi dialog aks etgan. Bunda e'tiborimizni tortgan narsa dialogda qo'llanilgan mashhur o'zbek xalq maqoli ("Bir oyog'i yerda, bir oyog'i go'rda") dir. Ma'lumki, Abdulla Qahhor o'z asarlarida o'zbekcha maqol, matal va frazeologizmlarni qo'llash masalasiga o'zgacha yondashadi. Ya'ni frazeologik birliklarning tarkibidagi so'zlarni ko'pincha boshqa so'zlar bilan almashtiradi yoki o'zgartiradi. Yuqoridagi dialogdagi ilk jumlada maqolning bir qismini ishlatadi (*bir oyog'ing go'rda-yu...*). Hatto maqol tarkibini o'zgartiribgina qolmay, uni rivojlantiradi ham (*Mening bir oyog'im go'rda, sening ikkala oyog'ing to'rдами?*). Bu Abdulla Qahhor uslubiga

xos bo'lgan xususiyatdir. Bundan tashqari adib asarlarida maqol qiymatiga ega bo'lgan aforistik jumlalar ham ko'p uchrashi yaxshi ma'lum. Masalan, yuqoridagi dialogdagi "...kim oldin o'lishini bilib bo'lmaydi" jumlesi bundan dalolatdir.

Endi parchaning ruscha tarjimasiga e'tibor qaratamiz: “—*Вот находятся тут разные, делать им нечего! Без вас не справимся! Сидел бы себе спокойно, и так одна нога в могиле*”.

Ko'rinib turibdiki, o'zbekcha dialog ruscha tarjimada o'z aksini to'liq topmagan. Bundan ham muhimi “*Bir oyog'im go'rda, sening ikkala oyog'ing to'rdami*” jumlesi tarjimada berilmagan. Ammo bu asar mazmuniga sezilarli darajada ta'sir qilmagan deb o'layman.

Asardagi yana bir jumlanı tahlil qilsak: “*Uy sovuq bo'lmasa ham, bir necha kundan beri uning eti uchar, oyog'isovqotar, og'rir edi*”. Ya'ni “*uning eti uchar*” iborasi *titramoq, sovqotmoq* degan ma'nolarni kuchaytirish uchun qo'llanilgan. Ya'ni bu jumla hikoya qahramonining kasalligini bildirish maqsadiga hizmat qilgan. Tarjimada esa: “*Так она и осталась лежать: сперва не хотелось подниматься, а после уже и сил не было. На третий день сердце у нее стало биться часто-часто — и вдруг разом ослабло: она умерла*” bu frezologik ibora o'z aksini to'liq topmagan.

“*Hikmat buva nima bo'lganini bilolmay, ko'zi bilan ko'rib turganini aqliga sig'dirolmay, garang bir ahvolda turib qoldi*” yuqorida keltirilgan jumlamizda Hikmat otaning bir yostiqqa bosh qo'ygan ayoli vafot etgani aks ettirilgan. “*Garang bir ahvolda turib qoldi*” birligi *nima bo'layotganini tushuna olmadi*, aqliga sig'dirolmadi, ma'nolarda qo'llanilgan. Tarjimada: “*Хикмат-бобо сразу даже и не понял, что произошло: он стоял, точно громом оглушенный*” ibora mazmuni to'liq, tushunarli tarzda ochib berilgan.

Yana bir asardan olingan bir parchani tahlil qilib ko'ramiz: “*Bahor keldi. Shaharda daraxt o'tqazish mavsumi boshlanib ketdi. Shu munosabat bilan gazeta maqola berib, o'tgan yil bahorda qaysi mahallalar planni to'ldirmay qolganini, qaysi mahallalar bu ishda namuna ko'rsatganini aytib, ilg'or mahallalar qatoriga "Yangi Mahalla"ni ham qo'shibdi. Buni cholga nevarasi ko'rsatib kului, chunki*

*o'tqazilgan daraxtlarning ko'pgina qismi tutmagan edi. Chol chiqib mahallani aylandi, daraxtlarni ko'zdan kechirdi. O'tgan yil bahorda jami bir ming yetti yuz oltmisht besh tup ko'chat o'tqazilgan bo'lib, bundan faqat sakkiz yuz oltitasi tutgan, tutgan daraxtlardan yigirma ikki tupi singan, sakkiz tupi sassiq, mo'rt va umri qisqa daraxtlar ekan. Chol bu ma'lumotni olib to'g'ri redaktsiyaga bordi.*

Rus tilidagi tarjimasiga qarasak : “Весна была уже на исходе. В городе кончалась посадка деревьев, и в газете появилась статья об озеленении, о том, какие махалли хорошо провели кампанию, какие — не выполнили плана. Среди образцовых была названа и их махалля; в статье так и было сказано: «Из года в год выполняет план по озеленению...» Прочитав это вслух, старший внук старика расхохотался: большая часть высаженных в прошлом году деревьев высохла. Стариk вышел на улицу и стал осматривать деревья. Он насчитал тысячу семьсот прошлогодних саженцев; из них принялось только восемьсот с чем-то, и из тех некоторые были поломаны... Стариk записал цифры и пошел в редакцию ” .

“ko'chat o'tqazilgan” so'zi ekilgan, parvarish qilingan ma'nolarini beradi. Ammo tarjimada bu so'z o'rniga “насчитал” “sanalgan” so'zi qo'llanilgan. Undan tashqari yuqorida keltirilgan “tutgan” so'zi ko'chat yaxshi o'sib-unmoqda degan ma'noni anglatadi. Tarjimada esa bu “принялось” tarzida berilgan .

“Mahalla” hikoyasida kirish so'z Erkin Voxidov qalamiga mansub epigraf ruscha tarjimada o'z aksini topmagan. Shunisi e'tiborlik, yillar oldin Abdulla Qahhor o'z shogirdi Erkin Voxidovga bo'layotgan tanqidlarni ko'rib, bir to'rtlik yozishini buyuradi va bu to'rtlikni u o'zining “Mahalla” hikoyasiga epigraf sifatida qo'llaydi. Bu bilan ustoz o'z shogirdiga bo'layotgan tanqidlarni oldini oladi.

Abdulla Qahhorning “Karavot” hikoyasi 1945-yilda yozilgan bo'lib M.Nipiti hikoyani o'zbek tilidan rus tiliga mohirona tarjima qilgan. Hikoyadagi ba'zi iboralar tahliliga qisqacha to'xtalib o'tamiz.

*“Hoy hoy, mening yorimsan, Tanimdag'i jonimsan*

*Qorong'u kechalarda*

*Yondirgan chirog 'imsan”*

she‘ri tarjimada to‘liq qofiyali tarzda mana bunday:

“Гей, мой конь, скачи, скачи!

Ты меня скорее мчи!

Светит мне любовь моя,

Словно свет луны в ночи”

tarzda o‘z aksini topgan. Undan tashqari “xotinining ko‘ngliga g‘ul-g‘ula tushdi” gapidagi “ko‘ngliga g‘ul-g‘ula tushmoq” iborasini havotirlandi, shubhalandi ma‘nolarida sharhlashimiz mumkin. Ibora tarjimada aynan frezologik birlik sifatida berilmagan bo‘lsa-da, mazmun to‘g‘ri yoritilgan: “на никогда еще не видела мужа в таком состоянии”. Shuningdek, “qulluq bo‘lsin” deb tasdiq qilayotganday bo‘lar edi” gapdagi “qulluq bo‘lsin” iborasi xalq tilida tabriklash, qutlash kabi ma‘nolarni bildiradi, tarjimada esa “поздравление родителям” kabi berilgan. Iboraning ayni o‘zi keltirilmagan bo‘lsa-da, ma‘nosi kitobxonga tushunarli tarzda ochib berilgan. Undan tashqari “suyunchi olib kelmoq” iborasi ham xalq tiliga singib ketgan ibora bo‘lib, tabriklash uchun biror nima olib kelindi tarzida sharhlashimiz mumkin. Tarjima to‘g‘ri yoritilgan: “принести подарки” holda. Tarjimadagi yana bir holatga alohida to‘xtalib o‘tish joiz deb bilaman. Ya‘ni arpa o‘simgili keltirilgan jumla tarjimada tushirilib qoldirilgan, fikrimcha arpa so‘zining tarjimasini “ячмень” shaklida berish maqsadga muvofiq bo‘lar edi.

Abdulla Qahhorning “Bemor” hikoyasi 1936-yilda yozilgan bo‘lib, shundan so‘ng bir qancha xorijiy tillarga tarjima qilindi. Shuningdek, biz hikoyaning rus tilidagi tarjimasini tahlilga tortamiz. Hikoyaga epigraf tarzida qo‘llanilgan “Osmon yiroq, yer qattiq” maqoli tarjimon tomonidan “Небо высоко, земля жестка” shaklida to‘g‘ridan to‘g‘ri asliga monand tarzda tarjima qilingan. Binobarin, “bunday vaqlarda yo‘g‘on cho‘ziladi, ingichka uziladi” gapidagi “yo‘g‘on cho‘ziladi, ingichka uziladi” frezologik birligi orqali qiyin kunlarda ham ma‘nan ham jismonan sinalish va barcha imkoniyatlaridan foydalanish haqida gap ketmoqda. Tarjimada ayni turdagи maqollarni aslidek qilib yetkazib berish bir muncha qiyin ish deb hisoblayman. Ammo tarjimon bu ishning uddasidan chiqqan. Negaki tarjimada “Ведь так оно всегда: где молсто — там тянется, где тонко — рвется” tarzida maqol tarjima qilingan va

kitobxonlarga tushunarli tarzda to‘g‘ridan to‘g‘ri yoritilgan. Undan tashqari “*bemor inqillaydi, har zamon yaqin - yiroqdan gadoy tovushi eshitiladi*: «*Xey do 'st, shaydullo ba nomi Ollo, sadaqa raddi balo, ba qavli rasuli xudo...*” gapidagi aynan “*Xey do 'st, shaydullo ba nomi Ollo, sadaqa raddi balo, ba qavli rasuli xudo...*” kabi gadoyning sadaqa so‘rab yurish epizodi xalq turmush tarzini to‘laqonli ochib berish, o‘sha zamon hayotini kitobxon ko‘z oldida gavdalantirish uchun qo‘llanilgan. Ammo tarjimada bu jumani keltirish bir muncha qiyin ish bo‘lganligi sababli tushirib qoldirilgan. Hikoyadagi iboralar tahlilini davom ettiradigan bo‘lsak, “*ko 'ngilga armon bo 'lmasin*” frezologik birligi ham e‘tiborimizni tortadi. Ya‘ni bu jumla *orzusi ushalmay qolib ketmasin, umid bog 'lagan bo 'lsa armon bo 'lmasin* kabi ma‘noga ega. Tarjimada “Чтобы в сердце умирающей не осталось неисполненных желаний” tarzida berilgan. Tarjimada ibora qo‘llanilmagan, ammo ibora mazmuni yetarlicha yoritib beradigan gap berilgan. Asar davomida biz bir qancha “o‘zbekona” so‘zlar qatoriga duch kelishimiz tabiiy. Shulardan biri “*chilyosin*” so‘zidir. Tarjimada ham bu so‘z o‘zgartirilmay (чилёсин) tarjima qilingan. “*Bemor tetik chiqqanday bo 'ldi*” gapidagi “*tetik chiqmoq*” frezologik birligi *ahvoli ancha yaxshilandi, o 'ziga keldi ma'nolarini berib, tarjimada ibora qo'llanilmagan*, “*Полегчало*” tarzida berilgan. Undan tashqari hikoyada yana bir qancha (saharga borib *joni uzildi, xomaki kasb qilishga majbur bo'ldi, qo'lidan kelsa hozir uning xotinini oyoqqa bostirib berishga tayyor ekanini bildirdi*) iboralar qo‘llanilgan. Tarjima ibora tarzida to‘laqonli yoritilib berilmasa-da ma‘nosiga mos keluvchi birliklar bilan almashtirilgan. Mening fikrimcha, frezeologik birliklar tarjimasi to‘g‘ri, aniq, bexato berilgan deb hisoblayman..

Shuningdek, adibning “Anor” hikoyasiga nazar solsak, yana bir bora o‘zbek tilining qanchalar boyligiga guvoh bo‘lamiz. Mana yana bir misol “*uning shashti qaytdi*” iborasi *xafa bo 'ldi, kutilgan narsasiga erisha olmadi* tarzida, “*kishining yuragini qon qilib yuborasan*” iborasi esa *qiynab yubormoq, g 'am-anduhda qolmoq* ma‘nolarini ifodalagan. Ikki iboraning ham tarjimasi to‘laqonli berilmagan. Ammo bu, asar mazmuniga o‘z ta‘sirini ko‘rsatmagan. Yuqorida ko‘rganimizdek, adib asarlari nafaqat xalq hayotini to‘laqonli ochib berish, undagi har bir vaziyatni o‘zgacha samimiylig bilan kitobxonga yetkazishdan iborat emas. Turmushimizda bo‘ladigan

vaziyatlar, murakkab yechimga ega muammolarni tushunarli, aniq, ochiq-oydin tarzda o'zbek maqol va iboralaridan keng foydalangan tarzda ochib bergan. Shunisi e'tiborliki, kundalik turmushimizda biz foydalanadigan jumlalar, har xil iboralar boshqa tillarniki bilan farq qiladi. O'zbek tili o'z lug'at boyligiga ega, har tomonlama imkoniyatlari keng, so'zga boy til. Shu sababli ham bunday iboralar tarjimasini asliga yaqin tarzida rus tilida berish bir muncha qiyin ish deb hisoblayman. Abdulla Qahhor ijodiga munosib bo'lgan ibora, frezologizmlarni qo'llash hech bir jumlada e'tibordan chetda qolmagan. Shuningdek, biz yuqorida ko'rib o'tgan jumlalarimiz buning yaqqol timsolidir. Bilamizki, xalq tilidan chiqadigan so'zlar adabiyotimizga singib ketgan va bu frezologik birliklardan foydalanish bilan yozuvchi xalq hayotining oddiyligi samimiyligi va jumlaning ta'sirchanligini oshirishga xizmat qiladi.

## **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR**

**1. Абдулла Каххар-** Избранные произведения в 3-х томах (Рассказы -  
пьесы Перевод с узбекского)

**2. Abdulla Qahhor-** Qo'shchinor chiroqlari roman/ hikoyalar

